

SUITSIDAL XUSUSIYAT – ZAMONAVIY AMALIY PSIXOLOGIYADA AKTUAL MUAMMO SIFATIDA

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12909865>

Sayfiddinov Asliddin Xusniddin o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi

Abstract. *Since the beginning of the 19th century, suicides have been observed in our country in accordance with the rate of regular growth of the suicide rate in the world community. Considering that official statistics only include cases where it is no longer possible to hide suicide, many of the things we encounter in life, which are considered accidents (accidents, drug poisoning, falling from a height, etc.) are actually suicides. It is necessary to pay attention to the possibility.*

Key words: *suitsidb, mild, adaptability, event, level, conclusion, adaptation, mental, humanity.*

Annotatsiya. *XIX asr boshlaridan buyon dunyo hamjamiyatida suitsid holatlari darajasining muntazam ravishda o'sib borish tempiga muvofiq yurtimizda ham o'z joniga qasd qilish holatlari kuzatilmoqda. Rasmiy statistik ma'lumotlarga qaraganda o'z joniga qasd qilishni yashirishni iloji bo'lmay qolgan hodisalarinigina kirishi hisobga olinsa, hayotda ko'p yuzma-yuz keladigan narsamiz, baxtsiz hodisa deb baholanadigan (avariyalar, dori-darmonlardan zaharlanish, yuqoridan yiqilish va h.k.) holatlar ham aslida suitsid bo'lishi mumkinligiga e'tibor qaratish lozimdir.*

Kalit so'zlar: *suitsidb, yengil, moslashuvchanlik, hodisa, daraja, xulosa, adaptatsiya, ruhiy, insoniyat.*

Suitsid (lot. sui – o'zini + caedere - o'ldirish) –insonning «o'zini-o'zi hayotdan maxrum etish niyatidagi xulq» ma'nosini anglatadi hamda deviant xulqning bir ko'rinishi hisoblanadi. Suitsid hodisasini tadqiq etishning murakkab tomoni shundaki, shaxsning suitsidal xulq-atvorini ma'lum bir shablona solib, uni standart qonuniyatlar asosida o'rganib bo'lmaydi. Xususan, har bir xotin-qizning shaxs bo'lib shakllanadigan oilaviy, ijtimoiy muhiti, individual-tipologik xususiyatlari turlichadir. Shundan kelib chiqqan holda, xotin-qizlarning krizisli vaziyatga nisbatan reaksiya bildirishi takrorlanmas xarakterga egadir. Xususan, suitsidni amalga oshirishga undagan motiv har bir holatda individual xarakterli bo'lsa-da, uning kelib chiqishiga turtki bo'ladigan ijtimoiy omillarda muayyan o'hashliklar bor. Demak, suitsidni keltirib chiqaruvchi omillar ko'proq psixologik va ijtimoiy psixologik sabablar bilan izohlanishi mumkin.

Erkaklar va ayollarning suitsidga urinish darajasi mutanosib ravishda, teng emas. Ayollar ta'sirchan va stressga chidamsizroq (doimiy ravishda emas) bo'lganliklari uchun

erkaklarga nisbatan 4 marta ko'p suitsidga urinadilar, faqat ular "yengilroq" usullarni tanlaganlari sababli aksariyat xollarda tirik qoladilar.

Ushbu suitsident ayollarning har ikkitasidan deyarli bittasining oilasi, turmush o'rtog'i, farzandlari borligini inobatga olsak, suitsidning oilaga, oilaning psixologik muhitiga shuningdek, jamiyat rivojlanishiga mutlaqo zid ravishda ma'naviy, moddiy ziyoni, ruhiy jarohat yetkazadi.

Sotsial xayotda, tabiiy ravishda yuzaga kelishi mumkin bo'la oladigan krizisni ijtimoiy malakalari, psixologik xususiyatlari yordamida yenga olmagan xotin-kizlar o'ziga xos (destruktiv) metod, hayotiy yo'nalish sifatida - agressivlik, ziddiyatlilik, kasallikka berilish, moslashmaslik, alkogolizm, reduksiya, giyoxvandlik qatorida **suitsidni** tanlashi mumkin.

Shu bois ayollarning suitsidal xulqini yuzaga kelishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni o'rganish bizning tadqiqot maqsadimizni tashkil etdi.

Ilmiy izlanishimiz davomida biz suhbat, kuzatish, standartlashmagan intervyu, kontent-analiz, E.Shneydmanning «Psixologik ehtiyojlar so'rovnomasi», R.Kettelning 16-faktorli «Shaxs xususiyatlarini aniqlovchi» metodikasi, A.Bass va I.Darkning "Agressiya shakllari va uning ko'rsatkichlarini diagnostika qilish" metodikasi, G.Ayzenkning temperament tiplari va xususiyatlarini diagnostikasiga mo'ljallangan test-so'rovnomasi, maxsus ishlab chiqilgan so'rovnoma; V.G. Romek tomonidan ishlab chiqilgan "Suitsid xavfini baholovchi shkala"ning moslashtirilgan varianti; Matematik statistika metodlari (Pirsonning korrelyatsiya koeffitsienti, Studentning t-mezoni, faktorli tahlil)dan foydalandik.

Tadqiqotimizda qatnashgan ja'mi respondentlar: suitsidga uringan (o'z joniga qasd qilishga urinib, tirik qolgan), suitsidal niyatli (o'z joniga qasd qilishga urinmay, faqat suitsidal fikrda bo'lgan) hamda natijalarni taqqoslash maqsadida suitsidga urinmagan va ma'lum bir ziddiyatli, inqirozli vaziyatda muntazam ravishda suitsidal fikrda bo'lmagan (nazorat guruhi) xotin-qizlarni tashkil etadi¹⁶³.

O'tkazilgan tadqiqot natijalaridan olingan empirik materiallarni faktorli tahlil etish asosida xotin-qizlarning suitsidal moyilligiga xizmat qiluvchi yetakchi faktorlarni aniqlashga muvaffaq bo'ldik.

Jumladan, yuqorida izohlangan 3ta guruhdagi respondent **xotin-qizlar** shaxsiyatidagi yetakchi faktorlar quyidagi tartibda aks etdi (1-jadval):

¹⁶³ Ислом Абдуғаниевич Каримов Ўзбекистон мустақилликка эришиш оstonасида / И.А.Каримов. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 440 б.

1-jadval**Respondent xotin-qizlar shaxsiyatidagi yetakchi faktorlar**

Sinaluvchi xotin-qizlarning xususiyatlari		
Suitsidga uringanlar	Suitsidal niyatli	Nazorat guruhidagilar
nonkonformlilik	adovatlilik	irodalilik
konformlilik	diplomatlilikning yetishmasligi	muloqatmandlik
yuqori hissiyotlilik	rigidlik	me'yoridagi hissiyotlilik
ishonuvchanlik	vosita sifatidagi "suitsidal niyat"	voqeilikka ijobiy munosabat
suitsidal tavakkalchilik	mantiqiy fikrlash ko'lamining torayishi	ijobiy yo'nalgan mustaqil fikrlilik
agressivlik	hayot mohiyatini chuqur anglamaslik	tashabbuskorlik
namoyishkoronalik	gipotimiya (aybdorlik hissiga moyillik),	emotsional barqaror ekstrovertlik
neyrotizm	impulsivlik	qat'iyatlilik
absraktlashgan agressiya	ta'sirchanlik	me'yoriy ijtimoiylashuv
alamzadalik		suitsidal moyilliklarni ifodalashdagi jur'atsizlik

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, nazorat va eksperimental guruh respondentlari shaxs xususiyatlarining tadqiqot natijalarida ko'ringan o'zaro aloqadorlikni qiyoslashga asosan, suitsidal xulqqa moyillikni keltirib chiqaruvchi salbiy va suitsidal xavfni tug'dirmaydigan - ijobiy uyg'unlashgan ijtimoiy-psixologik xususiyatlar namoyon bo'ldi.

Ijobiy uyg'unlashgan xususiyatlar - suitsidal moyillikni cheklab, avvalo shaxsning asl mohiyatini tashkil etuvchi ehtiyojlarini qondirishga (ichki uyg'unlikni hosil qilish), shuningdek, ijtimoiy munosabat talablarini qondirishga, bir so'z bilan aytganda, shaxsning muvafaqqiyatli ijtimoiylashuviga imkon beradi¹⁶⁴.

Salbiy uyg'unlashgan sifatlar esa aksincha, shaxsning ichki va tashqi ziddiyatlarga duchor bo'lishini ta'minlab, suitsidal moyillikni yuzaga keltirishini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, tadqiqotimiz asosan uch tipli suitsidentlar guruhini ajratishga imkon berdi:

Konform-nonkonform tipli suitsidentlar – o'z kamchiliklarini qabul qilmasligi, o'zligini, imkoniyatlarini adekvat baholay olmasligi, ziddiyatli vaziyatni real baholash, tahlil qilish layoqatining yetarli emasligi sababli stressli vaziyatlarda va ziddiyatli paytda o'zini qanday

¹⁶⁴ www.anypsy.ru/content/mirovaya-statistika-suitsidov

tutish lozimligi malakalariga ega emasligi oqibatida konformlilik bilan umumiy xulqqa moslashib yoki nonkonformlilik bilan negativizmni namoyon etgan holda suitsidal fikrlarni ifodalashi, suitsid qarorini qabul qilishi yoki suitsidga moyillik yuzaga kelishi mumkin.

Vaziyatga bog'liq suitsidentlar – atrofdagilarning xulq-atvori mohiyatini sog'lom fikr bilan adekvat idrok etish va tushunishga nisbatan, unga zid keluvchi (kauzal atributsiyaga asoslangan) atrofdagilar xulq-atvorini yuzaga keltiruvchi motivlarni noto'g'ri va reallikka nomuvofiq tarzda tushunishga moyillik - shaxsning atrofdagilarga moslashish, ular bilan garmonik (nizolarsiz yoki samarali) munosabatlarga kirishishini izdan chiqarganligi tufayli, hayotiy hodisalarni qadriyatlilik va ahamiyatlilik jihatidan darajalarga ajrata olmaslik oqibatida motivatsiyaga asoslanmagan negativizm, autoagressiya ko'rinishidagi suitsidal aktlar, moyilliklar yuzaga kelishi mumkin.

Shaxs tomonidan inqirozli holat deb qabul qilingan vaziyatda – moslashish, muloqatmandlik uchun zarur bo'lgan xarakter sifatlarini ko'rsatish va mos bo'lmaganlarini kompensatsiyalashga (yashirish yoki bostirish), xizmat qiluvchi tartibga solish, sozlash (regulyativ) layoqati va malakasining yetarli emasligi – **beqaror suitsidentga** xos xususiyatdir¹⁶⁵. Ular ziddiyatli vaziyatlarda, inqirozli holatlarda xulq-atvor variantlarini qiyoslab, ularning eng maqbulini tanlab o'tirmasdan, oqibatlarni ko'z oldiga keltirmasdan – istinktiv, impulsiv ravishda suitsidni namoyon etishi mumkin.

Bundan tashqari, respondentlarda ushbu ijtimoiy-psixologik xususiyatlar ham kuzatildi:

- xushmuomalalik (har doim, hammaga yoqishni, doimiy ravishda guruh tomonidan rad etilmaslikni ko'zlash)

- depersonalizatsiya - shaxslilik (ichki o'z "Meni"ni qabul qilishga, o'z manfaatlariga nisbatan, e'tiborsiz ravishda guruh tomonidan qabul qilinishga yoki egotsentrizmga kuchli intilish sifatida);

- moslashish me'yorining buzilishi (vaziyatni to'g'ri baholay olmaslik oqibatida, hayotiy muammolar, vaziyatlarga nisbatan noadekvat munosabat);

- tortinchoqlik (o'zini namoyon etish, o'zini tavsiya eta olish, mustaqillik layoqatiga to'sqinlik sifatida);

- o'zini-o'zi noadekvat baholash (o'z imkoniyatlariga ishonchning yetishmasligi, badgumonlik yoki buning aksi);

- ta'sirchanlik, ta'sir o'tkazuvchanlik (hissiy yetuklikning yetishmasligi (senzitivlik) tufayli ijtimoiy ta'sir, guruh bosimi, referent guruhning salbiy ta'sirlariga beriluvchanligi, tanqidlarga chidamsizlik sifatida);

- xavotirlilik, aybdorlik hissiga berilish (o'z kuchiga, mustaqil, tanqidiy fikrlash malakalarining rag'batlantirilmaganligi oqibati sifatida);

¹⁶⁵ Суицидология: прошлое и настоящее: Проблема самоубийства в трудах философов, социологов, психотерапевтов и в художественных текстах / Сост. А.Н.Моховиков - М.: Когито-Центр, 2001. - 569 с.

- ma'suliyatsizlik (belgilangan ma'naviy me'yorlarga bepisandlik, burch hissining yetarli emasligi);
- irodasizlik (hayotiy ziddiyatlar, muammolarni konstruktiv yechish o'rniga, o'z o'zligini namoyon etish, jabrdiyda pozitsiyasida bo'lish);
- negativizm (tolerantlikning yetishmasligi oqibatida, sabrsizlik, qaysarlik bilan qadriyatlarni radikal ravishda rad etish).

Shaxs xususiyatlarining me'yoriy uyg'unligini tashkil etuvchi moslashganlik va o'zini boshqarish (samoregulyatsiya), o'zini namoyon etish (samoaktualizatsiya) parametrlarini to'g'ri shakllantirish orqali suitsidal xulq profilaktikasini amalga oshirish mumkin¹⁶⁶.

Demak, tadqiqotimizda olingan natijalarga asosan "Psixoterapiya va psixologik yodam" xonalarida faoliyat yurg'izayotgan hamda amaliyotda ishlayotgan barcha psixologlarga quyidagi tavsiyalarni keltiramiz:

- Suitsidga uringan shaxslarning ekstrovertlik xususiyatlariga e'tibor berish ya'ni, suhbatlashishga, dardlashishga bo'lgan intilishlarini o'z vaqtida, samarali qondirish orqali ulardagi xavotirlanuvchanlikni susaytirish va ijtimoiy moslashishning izga tushishiga yordam berish mumkin;

- haddan tashqari yuqori nonkonformlilik, agressivlilikni adekvatlashtirish, ekstrovertlik-introvertlik xususiyatlarni me'yorlashtirish treninglari orqali suitsidal xulqning yuzaga kelish xavfini oldini olish mumkin;

- konformlilik xususiyatini korreksiyasi jarayonida asosiy e'tibor negativizm yoki qaysarlik xislatlarini bartaraf etishga emas, balki mustaqillik, erkin fikrlilik xususiyatlarini shakllantirishga qaratilishi lozim;

- guruhning "bosimi" dan, rad etilishdan, ma'suliyatdan cho'chib, har qanday vaziyatda murosa (kompromisslik) yo'lini tutib, fikr-mulohazalarni bevosita (bilvosita) bildirish, negativizm, ranjish, muntazam ravishda adovatni ichida saqlash kabi holatlarda emas, balki ochiq munozara, to'g'ridan-to'g'ri o'z aybini tan olish orqali muammoga oydinlik kiritish malakalarini shakllantirish;

- avtoritet, referent guruhlarning salbiy ta'sirlariga berilishning oldini olish yuzasidan treninglar tashkil etish orqali, motivga asoslangan, anglangan holda o'z yo'nalishi, qiziqishlari, qadriyatlarini shakllantirish ko'nikma-malakalarini hosil qilish;

- shaxsning o'ziga nisbatan adekvat bahosini, atrofdagilarning har qanday baho berishlaridan qat'iy nazar o'zgarmasligini, hissiyot va istaklarini nazorati ko'nikmasini ta'minlovchi, treninglar o'tkazish.

¹⁶⁶ Хорни К. Женская психология. - СПб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 1993. - 224 с.

1. Islom Abdugʻanievich Karimov Oʻzbekiston mustaqillikka erishish ostonasida / I.A.Karimov. – T.: Oʻzbekiston, 2011. – 440 b.
2. Суицидология: прошлое и настоящее: Проблема самоубийства в трудах философов, социологов, психотерапевтов и в художественных текстах / Сост. А.Н.Моховиков - М.: Когито-Центр, 2001. - 569 с.
3. Хорни К. Женская психология. - СПб.: Восточно-Европейский институт психоанализа, 1993. - 224 с.
4. www.anypsy.ru/content/mirovaya-statistika-suitsidov